



INGLIZ VA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA MULTIMEDIAVIY MASHQLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Nezametova Zuhra Ahmadovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti

Toshkent, O'zbekiston,

E-mail: nezametova@gmail.com

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995583>

***Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz va o'zbek tilini o'qitishda multimediasiy mashqlardan foydalanishning pedagogik, psixologik va metodik jihatlarini tadqiq qilingan adabiyotlar tahlili o'rin olgan. Multimediasiy mashqlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda mazkur mashqlarni boshlang'ich sinflarda foydalanish va uning samaradorligi haqida taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'zbek tili, ingliz tili, multimedia, multimediasiy mashq.*

***Аннотация.** В статье представлен анализ литературы, посвящённой педагогическим, психологическим и методическим аспектам использования мультимедийных упражнений при обучении английскому и узбекскому языкам в начальных классах. На основе научно-теоретических основ использования мультимедийных упражнений даны рекомендации и предложения по их применению в начальных классах, а также рассмотрена их эффективность.*

***Ключевые слова:** начальные классы, узбекский язык, английский язык, мультимедия, мультимедийные упражнения.*

***Abstrakt.** The article presents a literature analysis on the pedagogical, psychological, and methodological aspects of using multimedia exercises in teaching English and Uzbek languages in primary school. Based on the scientific and theoretical foundations of multimedia exercises, recommendations and suggestions are provided for their application in primary education, as well as an assessment of their effectiveness.*

***Key words:** primary school, Uzbek language, English language, multimedia, multimedia exercises.*

Kirish. Umumta'lim maktablarida ta'limni isloh qilish, o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlarining mazmunini takomillashtirish bo'yicha muhokamalarda, maktabda o'rganilayotgan fanlarni qisqartirish haqidagi fikr-mulohazalar o'rta qo'yilmoqda. Albatta, maktabda tillarni o'qitishning o'z o'rnini bor. O'zbek tilini ona tili sifatida, shuningdek, uni davlat tili sifatida o'qitish, shu bilan chet tili fani qisqartirishlardan mustasno. Binobarin, boshlang'ich ta'limda tillarni o'rganish alohida ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini davlat tili sifatida va ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarni tengdoshlari, o'qituvchilar, til egalari bilan o'zbek tilida va ingliz tilida muvoqot qilishga o'rgatish, shuningdek, turli xil hayotiy vaziyatlarda tildan mustaqil



foydalanishga yo'naltirish hamda ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli tayyorlashni ko'zda tutadi. Albatta, darslarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qilinadi. Til va madaniyat munosabatlariga (kundalik urf-odatlar, marosimlar, odob, milliy taomlar, kiyim-kechak, imo-ishoralar) e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, o'quvchilar o'zbek tilini tabiiy til muhitida yetarli darajada egallaydilar, shuningdek, o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlari, milliy an'analari, qadriyatlari, urf-odatlarini sevib o'rganadilar.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli resurslar, multimediami mashqlardan foydalanish muammolari, yechimlari, ularning pedagogik-psixologik va metodik jihatlari o'rganilgan pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, raqamli resurslardan, multimediami mashqlardan foydalanish va uning natijadorligi masalasi asosan oliy ta'limda, umuta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinflari kesimida keng o'rganilgan va ijobiy natijalar olingan. Masalaning boshlang'ich sinflardagi holati ham muayyan tadqiqotlar obyekti sifatida tanlangan. Bu ayniqsa chet tili fanini multimediami texnologiyalar bilan integratsiyalashga qaratilgan tadqiqotlarning salmog'i ortganligida yaqqol namoyon bo'ladi. Kichik maktab o'quvchilarining o'quv faolyatida axborot texnologiyalarini tatbiq qilish muammolarini ilmiy hal qilishga S.Peypert [1], V.V.Artemyeva (tabiiy fanlarni o'qitishda) [1], L.Bosova, A.V.Goryachev (informatika fani misolida) [2, 5], N.Tarasova (texnologiya fani misolida) [11], V.V.Davidov (kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganishda) [8], V.A.Chibuxashvili (nutq o'stirish va kompyuter texnologiyalari misolida) [12], Y.Gadustova [4] va b. tadqiqotchilar salmoqli hissa qo'shganlar.

Maqola maqsadi pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, boshlang'ich sinflarda ingliz hamda o'zbek tilini o'qitishda multimediami mashqlarni yaratish va foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlashdan iborat.

Materiallar va metodlar. Ishda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili, umumlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Ingliz tili va o'zbek tili o'qituvchilari o'z faolyatida yoshi, temperamenti, jismoniy va aqliy salohiyati, idroki va tushunish qobiliyati bilan farqlanuvchi turli o'quvchilar bilan ishlaydi [3]. Shuning uchun darsda raqamli texnologiyalarni, multimediami mashqlarni foydalanishda bu jihatlarni, albatta, hisobga olish lozim. Bu esa sohadagi ilmiy nazariy qarashlarni o'rganib chiqishni taqozo qiladi.

Multimedia mashqlaridan foydalanish muammolari va ularning yechimlari, shuningdek, pedagogik-psixologik, metodik jihatlarni tadqiq qilgan olimlar



kompyuterda ta'limiy o'yinlar ishlab chiqishning ergonomik jihatlariga ham alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, matnning minimal darajada bo'lishi yoki kichik maktab yoshidagi o'quvchiga o'qishni osonlashtirish uchun yirik harflarda berilishi, qo'llaniladigan belgilarning bolaga tushunarli bo'lishi, hal qilinishi zarur bo'lgan vazifadan bolani chalg'itishi mumkin bo'lgan mayda detallarning bo'lmasligi, interfeysning soddaligi, to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilgan harakat uchun quvonchli yoki g'amgin musiqaning jo'r bo'lishi kabi jihatlar ham muvaffaqiyat omili bo'lishi ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar kompyuter yordamida o'qitishni tashkil qilishda egallangan bilim va ko'nikmalarni og'zaki bayon qilish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashgan. Xususan, Y.N.Yegorovning tadqiqotlarida o'quvchilarga o'z taassurotlarini ifodalashga va boshqa o'quvchilar bilan suhbatlashishga ruxsat berilganda o'quv materialini yakka va jimlikda o'rganganlarga qaraganda yaxshi o'zlashtirgan. Albatta, muloqotning sifati, xilma-xilligi, miqdori va ta'lim natijalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik namoyon bo'lgan.

Tadqiqotchining aniqlashicha, agar kompyuterda bajariladigan vazifa diqqatni jamlash, javob tezligini va muayyan yakka xatti-harakatlarni talab qilsa unda guruh ishidan ko'ra yakka ishlash afzallikka ega. Vaholanki, bunday vaziyatda guruh ishida o'quvchilar bir-birini chalg'itishi, hatto konfliktlar, nizolar vujudga kelishi mumkin. Uning tavisyasiga ko'ra, multimedia vositalari yordamida o'quv natijalarini testlashda "bitta o'quvchi – bitta kompyuter" modelidan foydalanish oqilona yo'l bo'ladi. Agar o'quv muammosini hal qilish va izlanuvchanlik taqozo qilinsa guruh yoki juftlikdagi ishlar samarali bo'ladi [6].

Tadqiqotimiz uchun boshlang'ich maktab yoshidagi (6-7 yosh) bolalarga ingliz tilini o'rgatishda multimedia dasturiy ta'minotidan foydalanishning psixologik-pedagogik muammolari va uslubiy tamoyillari ko'rib chiqilgan ishlar alohida qimmatga ega [10].

R.M.Sadikov tadqiqotlarida rus tilidagi 1-4-sinf darsliklariga multimediali ilovalarning resurslari (animatsiya, video va audio materiallar, testlar, trenajyorlar va boshqalar), "Boyqush xolaning darslari", "Bilmasvoy harflar mamlakatida", "Bo'g'irsoq bilan Grammatikaga sayohat" va boshqa shu kabi multiplikatsion hikoyalarga yaratilgan dasturlar, "A'lochi", "Bilag'on", "Quvnoq to'siq" va boshqa test dasturlari orqali rus tili asoslarini o'rgatish va o'quvchilarda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni baholashga yordam berishi borasidagi izlanishlar natijalari yoritilgan [9;17].

Xulosa. Psixologik adabiyotlardan ma'lum bo'ldiki, multimediami mashqlardan foydalanish o'quvchilarda fikrlash, idrok etish, xotira va ijodkorlik rivojlanishiga



yordam beradi. Albatta, yosh xususiyatlarini hisobga olish va bolaning rivojlanishiga mos keladigan mashqlarni tanlash zarur. Pedagogik va metodik adabiyotlarda asosan multimediyaviy mashqlarni yaratish va kompyuter vositasida bajarishda psixologik, pedagogik, metodik, ergonomik talablarni e'tiborga olish nuqtayi nazaridan nazariy qarashlar aks etgan. Davrimizda mobil qurilmalar, aqlli telefonlar, aqlli televizorlarning sinfxonalarga kirib kelishi, shuningdek, onlayn ta'limiy platformalarning multimediyaviy mashqlarni yaratish imkonini berayotganligi tadqiqotni yanada rivojlantirish lozim degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Артемьева В.В. Дидактические условия обучения младших школьников естествознанию средствами компьютерных технологий: дисс.канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2007.
2. Босова Л.Л. Развитие методической системы обучения информатике и информационным технологиям младших школьников: дисс. доктор пед.наук. – М., 2010.
3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. –Москва: Просвещение, 1991. – 293 с.
4. Гадустова Е.В. Элементы проблемного обучения с компьютерной поддержкой на уроке русского языка (4 класс). //Начальная школа плюс до и после. – 2008. – № 8. – С. 30–32.
5. Горячев А.В. Методика обучения информатике в начальной школе, реализующая объектно-информационный подход: дисс.канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2004.
6. Егорова Ю.Н. Мультимедиа как средство повышения эффективности обучения в общеобразовательной школе: автореф. дисс канд. пед.наук. –Чебоксари, 2000.
7. Пейперт С. Переворот в сознании: дети, компьютеры и плодотворные идеи. –М., Педагогика, 1989.
8. Психическое развитие младших школьников: экспериментальное психологическое исследование / Ред. В.В. Давыдов. – Москва: Педагогика, 1990. – 160 с.: ил. – URL: <http://psychlib.ru/inc/absid.php?absid=10668> . – Экземпляр № 24491 находится в Открытом доступе на Сретенке. – ISBN 5-7155-0215-2.
9. Садиқов Р.М. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг лингвометодик компетентлигини шакллантириш методикаси: автореф. дисс PhD. –Т., 2022. –49 б.
10. Саенко О.С. Формирование основ обучения английскому языку с помощью мультимедийных программных средств у детей младшего школьного возраста: Дис. ... канд. пед. наук – Санкт-петербург, 2006.
11. Тарасова Н.Г. Технологическая подготовка младших школьников с использованием средств информационных технологий: Дис. ... канд. пед. наук –Киров, 2003. –205 с. РГБ ОД, 61:04-13/804
12. Чибухашвили В.А. Методические основы овладения младшими школьниками коммуникативно-нормативным компонентом речи с компьютерной поддержкой: дисс. доктор пед.наук. – Елец, 2013.
13. Юлдашева, Ш., & Уразбаева, Д. (2022). Ona tili ta'limi va xorijiy tajribalar. *Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации*, 1(1), 292-294.